

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка)	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI	217-223
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

Valieva Xolida

Rus tili kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI

Annotatsiya. ushbu maqolada ajdodlarimiz bizgacha qoldirgan merosi, adabiyotga, ma'rifatga dahldorligi, o'zligimizni anglash, qadriyatlarga, an'analarga sodiq qolish tushunchasi haqida bayon qilingan. Shuningdek, O'rta Osiyo rivojiga o'z hissasini qo'shgan allomalar, Turkiston ma'rifati va ma'naviyatini yangi talqinga olib chiqqan davlat va jamoat arboblarining ijodlari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: ajdodlar, qadriyat, ma'naviyat, ma'rifat, shoir, alloma, ilm-fan, urf-odatlar, davlatlar.

Valieva Kholida

Senior Lecturer, Russian Language Department,
Tashkent University of Applied Sciences

THE HERITAGE OF THE ANCESTORS - THE WEALTH OF HUMANITY

Abstract. this article talks about the heritage of our ancestors, the importance of literature, education, self-awareness and tradition. And also, the creativity of thinkers, statesmen and public figures who made a huge contribution to the development of literature and education in Central Asia.

Key words: ancestors, enlightenment, traditions, thinker, science, states, respect, poet.

Валиева Холида

Старший преподаватель кафедры Русского языка
Ташкентского университета прикладных наук

НАСЛЕДИЕ ПРЕДКОВ – БОГАТСТВО ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Аннотация. в данной статье говориться о наследии наших предков, значения литературы, просвещения, самосознания и традиции. А также, творчество мыслителей, государственных и общественных деятелей, которые внесли свой огромный вклад на развитие литературы и просвещения в Средней Азии.

Ключевые слова: предки, просвещение, традиции, мыслитель, наука, государства, уважение, поэт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N41>

Ko'hna tarix tamadduni ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan mamlakatlar u qadar ko'p emas. Bular: Xitoy, Hindiston, Misr, Yunoniston, Vizantiya, Turon, Eron, Vavilon, Arabiston, Italiya, Frantsiya, Germaniya, Rusiya. Bu ro'yxatni hech kim o'z ixtiyori bilan kengaytirib yoki qisqartirib yuborishga haqli emas. Ularning ichida O'zbekiston degan nom ham mustahkam o'rin egallagan. Biz nomi ulug', Ollohning mehribon nigohi tushgan, osmonida quyosh, oy, yulduzlar talashgan, ammo shunga qaramay musaffo osmonli, kesilmas zabonli, luqmai halolga

qanoat qiluvchi, tolei kulgan, mard va tanti o'zbek xalqimiz. Darhaqiqat, bu xalq, bu millat vakillarini eslaganda, mo'ysafid yo'lchi misol tikso'z bo'lib, olis tarix zarvaraqlariga nazar tashlaganimizda, beixtiyor ko'z o'ngimizda buyuk ajdodlarimiz: dovrug'i olamga doston Sohibqiron Amir Temur, o'z yurtining bir qarich tuprog'i deb jonini berishga ham tayyor turgan Jaloliddin Manguberdi, oqar daryolarning suvi ko'ziga ko'rinxay, o'z hayotini tahlikaga qo'yib, xalqini o'ylagan va g'olib chiqqan Temur Malik, benarvon yulduzlarni sanab, ularning chiroyini munavvar aylagan, o'zi ham ilm osmonida yulduz misol yuz ochgan "Muslim, muslimaga o'qimoq farzdir!"- deya takrorlagan Mirzo Ulug'bek, ijod olamiga katta yo'l ochib, Hind sari yuzlangan, ammo o'sha yerda ham o'z tuprog'ini qo'msab, nola-yu afg'on chekkan, daryodek dardlarini she'rlariga to'kkani Zahiriddin Muhammad Bobur, yuragini "soz" qilib olgan, ko'zlarida oy berkingan Usmon Nosir va boshqa ne-ne daholarimiz gavdalaniadi, uning uchun ham biz buyuk Turon xalqimiz, maqsadlarimiz aniq, yo'limiz ravon, ma'naviyatimiz va ma'rifatimiz oliy, dinimiz islom, niyatlarimiz bardavomdir.

O'zbekiston ko'hna obidalarga boy bo'lgan mamlakat sifatida dunyoda to'qqizinch o'rinni egallaydi. Buni hech kim, hech qachon inkor eta olmaydi. Biz shak-shubhasiz buyuk xalqmiz. Turon tamadduni - bu butun o'zbek diyori demakdir. Chunki qadim-qadimdan bu hududda ne-ne buyuk zotlar yashab, dunyoni lol qoldirganlar [2].

Tarixdan bizga ma'lumki, O'rta Osiyo madaniyati va ma'rifatining rivojlanish davri VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda yashab, ijod qilgan allomalarimiz ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tibbiyot, hunarmandchilik, me'morchilik sohalarida ijod qilib, yurt ravnaqi uchun o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Buyuk mutafakkir olimlarimiz merosi haqida gapirganimizda, ularning yaratgan asarlari, ilm-fanga qo'shgan hissalarini beqiyosligini ko'ramiz. Dunyo tan olgan bu olim-u, allomalarimizni sho'ro davrida reaktsion va progressiv guruhlarga ajratilganini bilamiz. Hatto ayrim buyuk allomalarimizni nomlarini bilmas edik, ularning asarlarini o'qish-o'rganish man etilgan edi. Eng achinarlisi shundaki, biz bilmagan, eshitmagan olimlarimizning asarlari chet ellarda o'rganib, o'qib kelingan. Biz Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Al Farg'oniy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk zotlarni yaratgan ilmiy-ma'naviy asarlarini deyarli yuzaki bilmaganmiz. Vaholang-ki, ularning yaratgan asarlarini dunyo ilmiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Islom dunyosida, hadischilik va xattotlik ilmining buyuklari Imam Buxoriy hazratlarini, Imam Termizi, Mahmud Zamaxshariy, Burxoniddin Marg'inoniy, Imam Moturudiylarni hali hanuz hurmat bilan yodga oladilar [1]. Biz esa ular haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lмаганмиз. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Najmiddin Kubro kabi Vatan ravnaqi uchun kurashgan sarkardalarimiz nomini tilga olishga qo'rqardik.

Ha, haqiqatan ham, yuqorida nomlari zikr etilgan, kechmishning so'ngsiz dengiziga aylangan, zimziyo shomda ham ziyo taratgan, o'z bag'ridan quyoshlar sochgan, xalqini, Vatanini birinchi o'ringa qo'yib, o'z mulki deb bilgan va bu mulkni asrab avaylagan, ne-ne sinovlarga ro'baro' bo'lgan, nafosat olamida ham tikanlar zahrini totgan ajdodlarimizni eslamay, xotiraga olmay ilojimiz yo'q. Faryodlar bo'roni yerni titratganda, fig'onlar to'foni ko'kka yetganda, ko'ksida g'am-alam qalashganda ham, palaxmonlar qaddining bukilishini istaganda ham, bizning buyuk ajdodlarimiz aslo taslim bo'lmadilar.

Ma'naviyat-ma'rifat borasida biz bugun jahondagi sanoqli mamlakatlarning biri ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Chunki, bag'rikenglik, insoniylik, ibo-hayo, uyat, ornomus, diyonat degan bir qancha tushunchalar faqat bizgagina, bizning xalqimizgagina xosdir.

Ayrim mamlakatlar lug'atida bunday iboralar umuman yo'q. Ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lган bu tushunchalar, o'zligimizni anglashda, odamiyligimizni, Hazrati inson degan buyuk ne'matga mosligimizni bildiradi. Ammo shunday bir davr bo'ldiki, biz o'zbeklar o'z insoniy tuyg'ularimizni, ma'naviyatimizni, urf-odatlarimizni, dinimizni, ona tilimizni unutgan edik. Bu juda achinarli hol bo'lib, xalqning milliy ruhiyatiga, hayot tarziga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan edi.

Kim erursan sen o'zing,
Gar o'zliging bilmasang.
Asli zoting, eling kim,
O'z tilingni bilmasang.
Sen kulib dersan sharafli,
Bu Vatan farzandiman.
Mir Alisher, shoh Mashrab,
Bedilingni bilmasang.
Qay kun kelding jahonga,
Ota-onang kim erur?
Sen ne inson, asli zoti,
Olimingni bilmasang.
Kim erursan sen o'zing,
Gar o'zliging bilmasang.
Asli zoting, eling kim,
O'z tilingni bilmasang!

"Reaktsion" degan tamg'a bosilgani, aytaylik, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Alloyor, Xo'janazar Huvaydo, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqa ko'plab mutafakkir shoir hamda yozuvchilarimiz hayoti faoliyatini o'rghanishga, o'qishga sira imkon berilmagan [4].

"Progressiv" deb o'rGANILGAN shoir, yozuvchi, ijodkorlar asarlari ham faqat sho'ro mafkurasi manfaatlaridan kelib chiqib baholanilgan. 1917 yilning 5 dekabrida "Hurriyat" gazetasida Abdurauf Fitratning maqolasi chop etiladi. Bu maqolada Turkiston muxtoriyati tuzilganligi va buni ko'plab insonlar yurakdan quvvatlashlarini katta his-xajajon bilan yozadi: "Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi, sharafimiz yemruldi. Nomusimiz g'asb qilindi, insoniyligimiz oyoqlar ostiga olindi. To'zimli turdik. Sabr ettik. Kuchga tayangan har buyruqqa bo'yundik. Butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermaduk, yoshuntirduk, imonlarimizga o'rab saqladuk. Bu -Turkiston muxtoriyati.

Mahkam eshiklardan yig'lab qaytganda, yoruqsiz turmalarda yotganda, yirtqich jandarmaning tepkisi bilan yig'log'onda, yurtlarimiz yondurulg'onda, dindoshlarimiz osulg'onda ongimiz yo'qoldi. Miyamiz buzuldi. Ko'zimiz yog'dusiz qoldi. Biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da tushkun ruhimizni ko'tarmak uchun, shul qop-qora dunyoning uzoq bir yeridin oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o'tmagan ko'zimiz shuni ko'rар edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyati!"[5].

Nomlari yuqorida sanab o'tilgan davlat va jamoat arboblari sinfiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib, batamom qora bo'yoqlar bilan chaplanib tashlanganlar. Sho'rolar tarafida bunday odamlar bari yomonotliq qilinganlar. Bunday hol hammamizni o'ylashga, fikr yuritishga,

qadrlash va asrashga undaydi. XX asr boshida ma'rifatparvar bobolarimiz xalqni ilmga chorlash uchun tilni, alifboni isloh etishga harakat qilishgani ham ulkan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'ldi. "Ilm va ma'rifat insoniylik tojidir. Insonlar faqat u bilan ulug'lanadi. Mol-mulk esa johilning g'ururlantirgan matosidir. Bu mol-mulk sarf bo'lishi bilan johillar halokatga uchraydi"

Istiqlol tufayli, avvalo tilimizni, dinimizni, urf-odatlarimizni, keyinchalik ma'naviyatimizni qaytarib oldik. Bu juda katta jasorat, chidam talab qilgan harakat edi. Xalqimiz qiyinchiliklardan, kmsitishlardan qo'rqlmay, o'zi xohlagan yo'ldan yurishga ahd qildi. Birinchi navbatda, ajdodlarimiz nomlari, ular qoldirgan meroslar qayta tiklandi. Xaroba holiga keltirilgan qadimi me'moriy obidalar, muqaddas ziyyaratgohlar ta'mirlandi, kitoblar chop etildi. Chunki ajdodlar merosi insonlarning bitmas-tuganmas boyligi edi. Bu boylikni qayta tiklash, dunyoga targ'ib qilish biz uchun sharaflı burch hisoblanadi. Biz shunday chumolidek mehnatkash, yelkalariniadolat va haqiqat silagan, insofli, vijdonli o'z xalqi uchun astoydil xizmat qilgan oliyjanob ajdodlarimizning, arslon savlatli bobokalonlarimizning, yuragiga pok tuyg'ulardan alanga yoqqan ulug'larimizning, qullikka o't qo'yib tashlashga qodir mardonavor jangchilarimizning, dushmanni chaqmoq misol kuydirgan bahodirlarimizning vorislarimiz [3].

Milliy an'analarimizni qaytarish, o'zligimizni anglash, yuqorida nomlari sanalgan zotlarning hayoti va faoliyati, ilmiy merosini tadqiq etish, ularning asarlarini bosib chiqish, allomalar sharafiga milliy me'moriy obidalar barpo etish ishlarini boshlashga imkon berdi. Ayrimlarining tavallud ayyomlarini xalqaro miqyosda tantana qilish urfga kirdi.

Masalan, istiqlol yillarida Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi (1999), Amir Temur tavalludining 660 yilligi (1996) xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Urganchda Jaloliddin Manguberdigiga, Toshkent, Shahrisabz va Samarqandda Amir Temurga mahobatli haykallar qo'yildi. 1996 yili "Amir Temur", 2000 yili esa "Jaloliddin Manguberdi" ordenlari ta'sis etildi [1].

Bulardan tashqari, ko'plab alloma, shoir va yozuvchilarimiz yubileyлari keng nishonlanib, ularga haykallar o'rnatildi. 2019 yilda esa Prezident Sh.M. Mirziyoev tashabbusi bilan Adiblar xiyoboni yaratildi. Bu yerda Turon xalqining faxri, or-nomusi, vijdoni bo'lgan adiblarning haykallari barpo etildi. Ularning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilindi, hujjatli va badiiy filmlar olindi. Madaniy merosimiz bo'lgan til, adabiyot, san'at asarlari keng targ'ib qilinib, ilm-fan sohalarida yangidan-yangi ishlar amalga oshirildi. Milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz tiklandi, o'zbekligimiz, o'zligimiz va o'zbek xalqi o'ziga bekligini anglab yetib, erkin rivojlanish yo'liga kirdi. Kishilarimizda millatning millatligini, xalqning xalqligini namoyon etuvchi qadriyatlarga qarash ko'nikmasi paydo bo'ldi. To'y-marosimlarimiz, oilaviy rasm-rusumlarimiz, an'analarimiz tiklandi. "Haqiqiy va komil inson yomon xislatlardan, noma'qul va nomarg'ub xulq-atvordan pok bo'ladi, go'zal sifat va axloq bilan o'zini orasta qiladi, halol mehnat qilib umr kechiradi, yomonlardan chetlanadi, yaxshilar qatoridan joy oladi, hech kimga ozor bermaydi".

Umumxalq bayramlarimiz – Navro'z, Ramazон va Qurbon hayitlari, Mustaqillik, Konstitutsiya qabul qilingan kunlar xalqimiz ruhiga mos tarzda nishonlanyapti. Respublikamizdagi barcha viloyat va shaharlarda bunday bayramlar ko'tarinki ruhda o'tkazilib, yoshlarimiz uchun hayot maktabi vazifasini bajarayapti. Chunki, qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, ajdodlarimiz merosiga hurmat va izzat tuyg'usini kuchaytiradi [4].

Shu jumladan, ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilib, ta'limni tubdan isloh qilish, uni milliy an'analarimiz va bugungi ilg'or zamon talablariga javob beradigan yangi

bir pog'onaga ko'tarishga kirishildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, uni hayotga izchil tatbiq etish jadal olib borilyapti.

Mustaqillik O'zbekiston xalqi oldiga, mustaqil milliy davlat tuzish, eski tuzumdan tamoman voz kechib, yangi bozor iqtisodiyotiga asoslangan, inson qadriyati ulug'langan huquqiy demokratik davlat barpo etishdek muhim vazifani qo'ydi. Endilikda maktabgacha ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim muassasalarida ajdodlarimiz hayoti va ijodini o'qish, ular qoldirgan merosni o'rganish, targ'ib qilishdek muhim ishlar amalga oshirilyapti. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ajdodlar merosiga hurmat-ehtirom bilan qarashdek tushunchalarni singdirish biz kattalarni asosiy vazifamizdir.

Agarda biz tariximizni, o'tmishimizni bilmasak, kelajakni xatolarsiz, og'riqlarsiz qurishimiz qiyin bo'ladi. Qachonlardir qilingan xatolar millatni mustamlaka bo'lishiga, manqurt maqomida bo'lishga olib kelishini biz juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham, xalq va davlat birlashib, mamlakatimizni, ona yerimizni, meroslarimizni, madaniyatimizni, ma'rifatimizni, urf-odatlarimizni ko'z qorachig'idek asrashimiz, himoya qilishimiz kerak. Bu bizning ham insoniylik, ham fuqarolik burchimizdir. Biz kattalar yoshlarga ibrat bo'lib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz kerak [5].

Davlat siyosati Hukumat xalq uchun xizmat qilishi kerakligi aniq ko'rsatib berdi. Endilikda oshkorlik, inson huquqlari hurmat qilinishi, so'z erkinligi degan tushunchalar shunchaki emas, balki isboti bilan amalda o'z aksini ko'rsatyapti. Davlat qabulxonalarining ochilishi, Prezident portallari xalqning dardini, og'rig'ini eshitib, ularga qo'ldan kelgancha yordam berishga qaratilgan. Bu ishlar zamirida davlat rahbarining olib borayotgan siyosati, inson manfaatlarini doimo ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

Ajdodlar merosini o'rganish, uni asrab-avaylash har bir fuqaroni insoniylik burchi deb bilaman. Agarda biz o'zligimizni, kimlarning avlodi ekanligimizni unutsak, kelajak avlodlar oldida gunohkor bo'lib qolamiz. Ajdodlar va avlodlarni bog'lab turuvchi rishta bu, xotira, hurmat, eslash va amal qilishdir. Bu ko'nikmalarni yoshlarimiz ongiga singdirish, ularga ta'lim-tarbiya berish, o'rnak bo'lish bizning asosiy burchimizdir.

Biz - vorislar, ajdodlarimizga munosib bo'lishga, bag'rimiz xun bo'lib tarix varaqlaganda, ularning kechmishidan xabardor bo'lib, izlarini yo'qotmaslikka, karvonlar ketidan saf tortib, davron surishga, o'z yurtimizni, kindik qonimiz to'kilgan makonni ko'z qorachig'imizday asrashga, qalb qoni bilan bitilgan, adabiyotimiz xazinasini to'ldirgan noyob durdonalarni avaylashga, shu bilan bir qatorda, qondoshlarimizning, jigarlarimizning nomlarini har doim osmonimiz gumbazida misli durday yashiringan qalbimiz to'rida saqlashga astoydil harakat qilib, kelajak avlodlarga namuna bo'lib, havas qilsa arzigulik shaxs sifatida kamol topishimiz darkor.

Biz - bu kimlar? Biz - bu bobo-buvilar, ota-onalar, qarindosh-urug'lar, o'qituvchi va pedagoglar, yoru-birodarlardir. Agarda hammamiz birlashib harakat qilsak, yurt ravnaqi, inson rivoji uchun ko'plab ishlar qilamiz. Eng asosiysi esa, "Inson" degan buyuk nomni oqlaymiz [1].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, har qanday mamlakat yoki xalq havas qilsa arzigulik buyuk merosimiz bor. Ajdodlarimiz qoldirgan, bizgacha yetib kelgan bu meroslarni asrab-avaylashga qodirmiz, dunyo ayvonida o'z o'rnimizda muqim turibmiz, hech kimdan kam emasligimizni dunyoga isbotladik. Hech kimdan kam emasligimizga qat'iy amal qildik. Hech kimdan kam bo'lmaymiz deyishga haqlimiz! Olloh bizga O'zbekiston deb atalmish tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog'i bor, bog' desa bog'i bor, har

tongda bulbullar madhini o'qib, tamom qilolmaydigan mustaqil yurtni, havas bilan eslashga arzigulik buyuk ajdodlari bor o'lkani Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o'zimizni baxtli deb bilmog'imiz, tariximiz qayta uyg'onib, bobokalonlarimizning ismini madh etib turgan vaqtدا, biz ham ularga munosib voris bo'lishga harakat qilmog'imiz darkor.

Qay bir insonlar bor, o'zi o'tsa ham,
Bus butun saqlagaylar nomusin, orin.
Bundaylar so'nggi dam ortiga boqib,
Kesib ketmagaylar ekkan chinorin.
Bundaylar o'ziga sag'ana yasab,
O'zga saroylarni buzib tashlamas.
Foniy bu dunyoda imonli yashab,
O'zidan arzugulik nomi qolsa bas!

Адабиётлар/Литература/References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston, milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura- T: 1996 y. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali 2012
2. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti -T.: TAMADDUN. 2016
3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari -T.: Universitet, 2006
4. Karimov N. va boshqalar, XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, -T.: O'qituvchi, 1999
5. Oripov A. Tanlangan asarla -T.: Sharq nashryoti, 2018

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 12/2 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-

уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).